

SHARQSHUNOSLIK

ВОСТОКОВЕДЕНИЕ

ORIENTAL STUDIES

1

2025

ILMIY JURNAL
ISSN 2181-8096

ISSN 2181 – 8096



**SHARQSHUNOSLIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF ORIENTAL STUDIES

№ 1, 2025



MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

ADABIYOTSHUNOSLIK// ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ // LITERATURE

<i>Abdurashidova N.</i> Yangi davr Vyetnam hikoyanavisligining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari	3
<i>Abduvaxidov A.</i> Sarvepalli Radhakrishnanning falsafiy-teologik qarashlari	16
<i>Ashurova M.</i> Xitoy adabiyotida esse janrining paydo bo‘lishi va taraqqiyoti	29

TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK // ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ // LINGUISTICS AND STUDY OF TRANSLATION

<i>Zakirova Y.</i> Angliyizmy v lingvisticheskoy literaturye yazyka urdu	40
<i>Tursunbayeva Z.</i> Tarixiy asarlar tarjimasida o‘lchov birliklarining ifodalanishi	51
<i>Karimova X.</i> Overview and thinking on the development of modern chinese terminology ..	63
<i>Yusupova G.</i> Koreys va o‘zbek lingvomadaniyatida xayrlashish nutq aktining ifodalanishi	79
<i>Fatxutdinova I.</i> Tarjimada semantik ekvivalentlik darajasining ahamiyati	92
<i>Fayzullayeva M.</i> Xitoy tilida gastronomik metaforalarning klassifikatsiyasi	103
<i>Ismoilova F.</i> Ingliz olam milliy lisoniy manzarasida islomiy istilohlar tarjimasi.....	115

MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK // ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ИСТОРИОГРАФИЯ // SOURCE STUDIES AND HISTORIOGRAPHY

<i>Turdiyeva D.</i> Zamonaviy diniy jarayonlar va yangi diniy oqimlar	125
<i>Ergashev J.</i> Qadimgi turk davlatchiligidagi “Kichik xoqonlar” boshqaruv institutining shakllanishi va rivojlanishi	137

XALQARO MUNOSABATLAR VA SIYOSAT // МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ПОЛИТИКА // INTERNATIONAL RELATIONS AND POLITICS

<i>Xodjimuratova D.</i> Eron siyosiy tizimida teokratik institutlarning o‘rnii	146
<i>Shukurov A.</i> O‘zbekiston respublikasi va Saudiya arabistoni o‘rtasidagi hamkorlikning yangi bosqichi va rivojlanish istiqbollari.....	162
<i>To‘uchiyeva R.</i> Yangi davrda Hindiston-yaqin sharq aloqalari: energetik hamkorlik va geosiyosiy dinamika.....	175

FALSAFA // ФИЛОСОФИЯ // PHILOSOPHY

<i>Иззетова Э.</i> Парадигма постконфуцианства Фэн Юланя в контексте философского дискурса.....	185
<i>Soysal D.</i> Magtymguly Pyragy’s Philosophy and Its Relevance to International Relations ..	199
<i>Ikramova I., Rashidova X.</i> Ibn tufayl “Hayy ibn yaqzon” asarining ontologik va gnoseologik jihatlari tahlili	208

IRODA IKRAMOVA

Falsafa fanlari bo'yicha Phd, dotsent v.b., TDSHU

XUSHNOZA RASHIDOVA

Sharq falsafasi va madaniyati mutaxassisligi, 1-bosqich magistranti, TDSHU

**Ibn Tufayl "Hayy ibn yaqzon" asaridagi
ontologik va gnoseologik jihatlarining tahlili**

Annotatsiya: O'rta asrlar Sharqi va G'arbi ma'naviy uyg'unligi o'ziga xos zaruriyat sifatida shunday shaxslarni yaratdiki, ularning qarashlari nafaqat sharqda, balki g'arbda ham o'z dolzarbligini qo'ldan boy bermay kelmoqda. Shunday faylasuflardan biri Ibn Tufayl qarashlarini biz barcha sohalar umumlashgan deb ta'riflay olamiz. Xususan, gnoseologik qarashlarida Ibn Tufayl aqliy bilish tarafdiridir. U ba'zi so'fiylarning noratsional yondashuvini tanqid qilib, ilmiy bilim va metafizikanı ma'rifat uchun tabiiy tayyorgarlik sifatida ko'rsatadi. Jamiyatdagi har bir holat, jarayon alohida ahamiyatga ega. Shu sababli, go'dakligidan boshlab insonlarda tushunish qobiliyati sekinlik bilan rivojlanib boradi. Dastlab, qiziqish paydo bo'ladi, uning natijasida har bir inson holat, jarayonlarga munosabat bildira boshlaydi. Natijada, tanqidiy tafakkur rivojlanadi.

Ibn Tufayl o'rta asr musulmon olamida "falsafa" atamasi bilan bog'liq sharq peripatetizmi matabining yirik vakili hisoblanadi. U sharq peripatetizimi (mashshoiiyyuna yo'nalishi) asnosida ratsional va naturalistik dunyoqarashlar rivojlanishini xotimasida bo'ldi. Ibn Tufayl mashshoiiyyuna yo'nalishining yirik vakillari Abu Nasr Forobi, Abu Ali ibn Sino, Ibn Bojja kabi yirik faylasuflarning falsafiy bilimlari davomchisi sifatida mashhurdir. Uning falsafiy xulosalarini aks ettiruvchi "Hayy ibn Yaqzon" asari keyinchalik Yevropada bu tarzdagi asarlar dunyoga kelishiga asos bo'lgan asar hisoblanadi. Asarda faylasuf kimsasiz orolda yolg'iz o'sgan Hayning qanday qilib olam sirlarini anglagani, idrok etganligini yoritib beradi. Mazkur maqolada Abu Bakr ibn Tufaylning bizgacha yetib kelgan yagona "Hayy ibn Yaqzon" asaridagi gnoseologik va ontologik jihatlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: gnoseologiya, epistemologiya, intuitiv bilim, ilmiy bilim, metafizika, "al-hikmat al-mashriqiya", faol aql, emonatsiya nazariyasi, "Hayy ibn Yaqzon".

Abstract. The spiritual harmony of the Middle Ages between the East and the West, as a special necessity, created such individuals whose views have not lost their relevance not only in the East, but also in the West. Among such philosophers, we can describe the views of Ibn Tufail as generalized in all areas. In particular, in his epistemological views, Ibn Tufail is a supporter of intellectual knowledge. He criticizes the irrational approach of some Sufis and shows scientific knowledge and metaphysics as a natural preparation for enlightenment. Every situation and process in society is of particular importance. Therefore, from infancy, the ability to understand develops slowly in people. Initially,



curiosity arises, as a result of which each person begins to react to situations and processes. As a result, critical thinking develops.

Ibn Tufail is a major representative of the school of Eastern peripateticism in the medieval Muslim world, associated with the term “philosophy”. He was at the culmination of the development of rational and naturalistic worldviews during the period of Eastern Peripateticism. This article examines the epistemological and ontological aspects of Abu Bakr ibn Tufail’s only surviving work, “Hayy ibn Yaqzan”.

Key words: *epistemology, intuitive knowledge, scientific knowledge, metaphysics, “al-hikmat al-mashriqiya”, active mind, theory of emanation, “Hayy ibn Yaqzon”.*

Аннотация. Духовная гармония Средневековья между Востоком и Западом, как естественная необходимость, создала личности, взгляды которых остались актуальными не только на Востоке, но и на Западе. Среди таких философов мы можем выделить взгляды Ибн Туфайля, которые можно охарактеризовать как обобщающие и охватывающие все области. В частности, в своих эпистемологических взглядах Ибн Туфайль является сторонником интеллектуального знания. Он критикует иррациональный подход некоторых суфииев, представляющих научное знание и метафизику как естественную подготовку к просветлению. Каждая ситуация и процесс в обществе имеют особое значение. Поэтому с младенчества способность человека понимать развивается медленно. Вначале возникает интерес, в результате которого каждый человек начинает реагировать на ситуации и процессы. В результате развивается критическое мышление.

Ибн Туфайль считается крупнейшим представителем восточной перипатетической школы мысли, с которой в средневековом мусульманском мире ассоциируется термин «философия». Он стоял у истоков развития рационального и натуралистического мировоззрения в эпоху восточного перипатетизма. В данной статье рассматриваются эпистемологические и онтологические аспекты единственного сохранившегося произведения Абу Бакра ибн Туфайля «Хай ибн Якзан».

Ключевые слова: гносеология, эпистемология, интуитивное знание, научное знание, метафизика, «аль-хикмат аль-машрикия», активный разум, теория эманации, «Хай ибн Якзан»

KIRISH. Yunonlarning Suqrotdan Aflatun orqali Arastugacha bo‘lgan yuksak darajada rivojlangan falsafiy madaniyat O‘rta asrlarda arab-musulmon xalqlari ilmiy, falsafiy madaniyatining shakllanishiga kuchli turtki berdi. Qadimgi yunon falsafasining ratsionallik xususiyati O‘rta asrlar arab-musulmon faylasuflari ilmiy-falsafiy tafakkurining asosiy sifatiga, xususiyatiga aylanib bo‘lgan edi. Shuningdek, falsafa tarixi, undagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni o‘rganish bo‘yicha ish olib borgan tadqiqotchi Sayyid Ibn Sayyid, bu falsafa yo‘nalishini ilk boshidanoq islam jamiyatida hokimiyat va davlat tashkil etish muammolari bilan bog‘liq bo‘lganligini ta’kidlaydi: “Bundan kelib chiqib, aniq ishonch bilan aytishimiz mumkinki, arab-musulmon faylasuflarining e’tiborlari qaratilgan masalalar va muammolarning asosiy doirasi aniq insonparvarlikni qamrab olgan

edi”¹. Shu jihatdan, Sharq peripatetik falsafasining to‘laqonli mohiyatida, uning turli mavzularida ham inson muammolari, uning aqliga yuqori baho berish doimo mavjud bo‘lgan. Qadimgi insoniyatning haqiqiy merosxo‘rlari deb atalgan XIV asr italyan gumanistlarini emas, aynan peripatetiklarni biz haqiqiy merosxo‘rlar deb atasak to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki, aynan ular qadimgi yunon falsafasi, madaniyati va ilm-fanining olyjanob merosini Yevropa uchun saqlab, rivojlantirgan tarzda yetkazib bergenlar.

Bu jarayonlarda albatta ispaniyalik arab-musulmon va yahudiy mutafakkirlarining ham hissalarini kattadir. Ularning ilmiy-nazariy va falsafiy g‘oyalari, qarashlari Sharq peripatetizmining umumiy an‘analarini boyitib, rivojlantirgan hisoblanadi. Ular arab dunyosining bu qismi (musulmon Ispaniyasi) aholisining mentalitetiga ham ta’sir ko‘rsatdilar. Shuningdek, bu o‘ta murakkab jamiyatdagi etnik, madaniy va diniy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlariga ham yetarlicha ta’sir etdilar.

Ibn Tufayl o‘zining bizgacha yetib kelgan yagona asari bo‘lmish “Hayy ibn Yaqqon”da inson atrofidagi insonlar yordamisiz ham kamolotga erishishi mumkin ekanligini ko‘rsatishga uringan. Tadqiqotimizning asosiy maqsadi Ibn Tufaylning “Hayy ibn Yaqqon” asaridagi borliqqa hamda inson bilimi rivojiga ta’luqli fikrlarni falsafiy tahlil qilish hisoblanadi. Shu maqsadni ko‘zlab, tadqiqotda bu turdagи asar yozish tarixini, ularagini g‘oyalarning qiyosiy tahlilini ko‘rib chiqish asosiy vazifa qilib olinadi.

TADQIQOTNING USULLARI. Tadqiqotni amalga oshirishda dialektik, tizimlashtirish, germenevtik, tahliliy va tahliliy-qiyosiy metodlardan keng foydalanildi. Shuningdek, tadqiqotda verifikatsiya, to‘ldiruvchanlik, tarixiylik, vorisiylik tamoyillaridan ham foydalanildi. Bu tadqiqot usullarining o‘zaro aloqadorligi vositasida amalga oshirildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Abu Bakr Muhammad ibn Tufayl hayoti haqida juda kam ma’lumotlar mavjud. Aniqlanishicha, u taxminan 1116-yilda Granadaning shimoli-sharqi qismida, bugungi kunda Guadiks nomi bilan mashhur shahar yaqinida tug‘ilgan. Bu shahar o‘scha paytda Almoravidlarning barbarlar sulolasi hukmronlik qilgan hudud bo‘lgan. Ibn Tufayl arablardan bo‘lgan. U Pireney yarim orolidagi ikkita aqliy salohiyat rivojlangan qal’alar Sevilya va Qurdobada tahsil olgan. Ibn Tufayl tibbiyot, matematika, astronomiya, fizika va boshqa tabiiy fanlar hamda she’riyatdan bilim olgan. O‘qishni tugatgandan so‘ng dastlab Ispanianing hozirgi Granada shahriga shifokor sifatida joylashadi.

O‘scha vaqtarda Pireney yarim oroli va Mag‘ribning katta qismlarida Almohadlar sulolasi (1147-1269) hukmronlik qilgan. Ularning Ibn Tufayl davridagi hukmdori xalifa Abu Ya’qub Yusuf (1163–1184 yillar hukmronligi)

¹ سید ابن سید. الفقح و السياسة (Sayyid ibn Sayyid. Fiqh va siyosat). بيروت. ١٩٨٥. – ص. ٧.



ma'rifatli hukmdor bo'lib, yunon falsafasiga juda qiziqar edi. U Ibn Tufaylni Marokash shahridagi o'zining saroy tabibi va bosh maslahatchisi etib tayinladi va u yerda faylasuf nufuzli, ziyoli olim sifatida faoliyat olib bordi. Tarixchilarning ta'kidlashicha, u arablarning nutqini eng yaxshi biladigan, ularni ko'p yod olgan, ziyrak bo'lib, yuksak zakovat egasi bo'lgan. Ibn Tufayl 1185- yilda Marokashda vafot etdi.

Ba'zi manbalarga ko'ra, Ibn Tufaylning dafn marosimida hattoki xalifaning o'zi ham ishtirok etgan, degan tahminlar bor. Faylasuf yuqori aqliy salohiyatga va badiiy qiziqishlarga ega bo'lgan, xususan astronomiyada o'z davrining umume'tirof etilgan Ptolomey tizimiga zid fikrlarni bildirgan. Biroq, uning barcha ilmiy va falsafiy merosidan bizgacha faqat "Hayy ibn Yaqzon" qissasi yetib kelgan. Uning mazkur asari – davr hujjatidir. Ibn Tufayl bunda Arastu, Forobiy, Ibn Sino, Ibn Bojja izdoshi va Ibn Rushd salafi sifatida maydonga chiqadi. "Misrlik yozuvchi va faylasuf, arab qo'lyozmalari merosi, islom tafakkuri, tasavvuf va arab tibbiyoti tarixiga oid bir qancha kitoblar va ilmiy tadqiqotlar muallifi Yusuf Muhammad Ahmad Zidan Ibn Tufaylning "Hayy bin Yaqzon" asaridan boshqa yana 97 ta kitobi bor bo'lganligi haqida ham ma'lumotlar bergan"¹.

"Hayy ibn Yaqzon" qadimgi arab adabiyotining mumtoz asarlaridan va uning durdonalaridan biri bo'lib, unda Ibn Tufayl falsafa, adabiyot, din va ta'limni uyg'unlikda mujassamlashtirgan. Bu tabiat sinovlari ustidan g'olib chiqqan inson haqidagi qissa bo'lib, uning bilish bosqichlarini aks ettiradi va uning qanday qilib yuqori falsafiy haqiqatga erishganligi haqida hikoya qiladi. "Unda ontologiya va gnoseologiya, psixologiya va din, inson va jamiyat munosabatlari masalalari yoritilgan. Inson zotining tabiiy evolyutsiyasi tasviri berilgan va shu asosda dunyoni falsafiy haqiqat sifatida bilish imkoniyati ko'rib chiqiladi. U insonning dunyoqarashining shakllanishini, eng avvalo, hayot va o'lim haqida fikr yuritish bilan bog'laydi"².

Ibn Tufayl "Hayy ibn Yaqzon" qissasida Hind okeanidagi orollardan birida, ekvatorga yaqin joyda, tabiatning o'zidan "na onasi, na otasi bo'lgan" inson bolasi paydo bo'lganini, uning ismi Hayy bo'lganligini aytib, o'z qissasini boshlaydi. Unda insoniyatdan ayro yashagan Hayyning butun hayotini yoritish jarayonida bilmaslikdan bilishga qadar bo'lgan yo'lni talqin qilib o'tadi.

Avvaliga go'dakni bolasidan ayrilgan jayron boqdi. Yovvoyi tabiat bilan

¹ Ибн-Туфайль. Повесть о Хайе ибн Йакзане // Мусульманская философия (Фальсафа): антология (Перевод с арабского, предисловие и комментарии Т. Ибрагима и Н.В. Ефремовой). – Казань: ДУМ РТ, 2009. – С. 669.

² Ибн Туфейль. Роман о Хайе, сыне Якзана / пер. И.П. Кузьмина // Избранные произведения мыслителей стран Ближнего и Среднего Востока. – М.: Соцэктгиз ИФ АН СССР, 1961. – С. 634.

yakkama-yakka yashab, bola turmush tarzini asta-sekin o‘zgartirib, uni o‘zlashtira boshladi. Xullas, avval yalang‘och joyini yaproqlar, so‘ngra hayvonlarning terilari bilan qopladi. Hayvonlardan himoya qilish uchun daraxt shoxlaridan tayoq yasab, Hayy “ko‘z o‘ngida biroz ko‘tarildi” va uning qo‘li hayvonlarning panjalaridan sezilarli darajada ustunlik qiladi degan xulosaga keldi, chunki u bilan yalang‘ochlik va o‘zini himoya qilish uchun tayoqlar ysashga muvaffaq bo‘ldi. Bu unga avvalgi orzusidagi narsalarsiz - dumsiz va tabiiy qurollarsiz yashash imkonini berdi.

Ona jayron vafotidan so‘ng, bola tanasining hayotiy faoliyatini tartibga soluvchi tamoyilni tushunishga harakat qilib, o‘tkir toshlar va quruq qamish bo‘laklari yordamida jayronning ko‘kragini ochish uchun bir turdag'i pichoqlar yasadi. Yurakka yetib, u tanani boshqaradigan va o‘lim bilan undan ajralib turadigan ruhni kashf etdi. Hayyning fikrlari esa tanadan ruhga ko‘chdi. Bundan buyon uning qiziqishi faqat shunga qaratilgan edi.

Asarda zamonaviy dunyoqarash terminologiya yoki kognitiv tizim haqida ham fikrlar keltirilgan. Hikoya Xudo-inson-tabiat aloqadorligi ifodalangan kognitiv tizimning asosiy elementlarini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, ushbu elementlar o‘rtasidagi munosabatlarning o‘lchovlariga to‘xtaladi. Asar inson tarixi haqida hikoya qiladi. Bu hikoya Ibn Tufaylning aql va e’tiqod yoki falsafa va din o‘rtasidagi munosabatlar haqidagi qarashini o‘z ichiga oladi. Unda ko‘proq gnoseologiyaning tushunchalari bilan to‘qnash kelinadi. “Asarda inson ongingin moddiylikdan ma’naviylikka va materiyadan mavhumlikka o‘tish sarguzashtlari qiziqarli tarzda tasvirlangan”¹. Bolaligidan odamsiz yerga qo‘nim topgan, hayvonni o‘ziga enaga, tabiatni o‘ziga boshipana qilib olgan bolaning hikoyasidir. U yer-u osmonda yashagan, ulg‘aygach, odatlari kuchayib, uning fikri pishib, u koinot haqida fikr yuritishga yuzlandi. Bu olam uchun Yaratuvchining mavjudligining muqarrarligi bayon etilgan.

Shuni ta’kidlash kerakki, bu hikoya qayta yozilgan. Ibn Sino qo‘lida to‘rtinchı marta yozilgan arab ilmiy merosidir. “Hayy ibn Yaqzon” nomli asar to‘rt marotaba xuddi shu nomda yozilgan. Mazkur asarni qator arab-musulmon faylasuflari yozganlar: Abu Ali ibn Sino, Shihobiddin as-Suhrawardi, Ibn at-Tufayl va Ibn an-Nafis. “Hayy ibn Yaqzon” qissasining birinchi muallifi faylasuf Abu Ali ibn Sinodir. Tadqiqotchi Hasan Hanafiy shunday deydi: “Yunoncha asli (Salaman va Absal) hikoyasi to‘rt faylasuf tomonidan yozilgan, ba’zan sarlavhalar o‘zgarib, mazmuni saqlanib qolgan Ibn Sino va Ibn Tufayl uchun ramziy qissa bo‘lib, Suhravardiy va Ibn Nafisning mavzusi bir xil: haqiqatga qanday erishish mumkin. Ibn Sino mazkur asarda dunyoviy bilimga tayanmasdan sof aql tabiiy, jonsiz, o‘simlik va hayvonot hodisalarini tafakkur qiluvchi tabiiy aql sifatida shakllantirgan. U bu asarni qamoqda bo‘lganida yozgan, so‘ngra uni Shayx

¹ Two Andalusian Philosophy// trans. by Jim Colville. – New York, 2011. – P. 24.

Shihobiddin as-Suhravardiy qayta tiklagan, so‘ngra uni qaytadan yozgan. Andalusiyalik faylasuf Ibn Tufayl ham keyinchalik shu nomda asar yozgan.

Keyin bu hikoyaning oxirgi rivoyati Ibn An-Nafis tomonidan yozilgan, u Ibn Sino rivoyatining asl mazmunidan uning ta‘limotiga to‘g‘ri kelmaydiganlarini payqab, o‘zning falsafiy e’tiqodiga ko‘ra, asarni “Fadil bin Notiq” deb atagan¹. Ushbu to‘rtta muallifning eng mashhuri hikoya nomiga ismi bog‘langan Ibn Tufayldir. Sababi, Ibn Tufayl o‘zining falsafiy g‘oyalarini oddiy xalq tushunadigan lingvistik shaklda yetkaza olishi bilan qolgan mualliflardan ajralib turgan. Ushbu roman ingliz faylasufi Jon Lokkga katta ta’sir ko‘rsatdi, u kitob yozdi va unda u aqlni sahifa sifatida tasvirlaydi.

Oq rangni, barcha meros bo‘lib qolgan qoidalar va to‘sqlivardan xoli. Qirollik jamiyatining falsafiy yozishmali ham kitobni maqtagan ajoyib taqrizni nashr etdi. Bu roman jahon tafakkuri va adabiyotining ko‘plab durdona asarlariga asos bo‘ldi. Fransuz faylasufi Jan-Jak Russo tomonidan Ibn Tufayl ijodidan ilhomlanib bir qator asarlar yozilgan. Biz ular orasida aniq umumiyligi voqealarni ham topamiz. Masalan, Daniel Defoning Robinzon Kruzo romani, o‘rmon bolasi Maugli hikoyasi va Tarzan xarakteri o‘rtasidagi bog‘liqliklar, ularning aksariyati inson xatti-harakatlari haqida so‘zlaydi. Ular asosan yolg‘iz, odamlardan yiroqdagi muhitda yashashga majbur bo‘lganlar. Ibn Tufaylning “Hayy ibn Yaqzon” asari va Daniel Defoning “Robinzon Kruzo” asari bo‘yicha Hasan Mahmud Abbas “qiyosiy tadqiqot” o‘tkazgan. U bu tadqiqotdan quyidagicha xulosaga kelgan: “Ibn Tufayl asarida ekzistensial va gnoseologik masalalar yoritib berilgan, Daniel Defo asarida esa ijtimoiylik yoritib berilgan. Hayy ibn Yaqzon Kruzodan yaqqol farq qiladi, arab qahramoni odamlarni bilmagan, odamlarni tanimagan, ingliz dengizchisi yashagandek ijtimoiy va madaniy hayot kechirmagan. “Shuning uchun ham Hayy ibn Yaqzon o‘zining muttasil o‘sib borayotgan ziyrakligi, aql-zakovati va tajribasiga tayanib, ilm darajalari bo‘ylab sekin-asta olg‘a intilayotgan inson suratini yaratgan”².

Tadqiqotchi Hasan Mahmud Abbas tadqiqotni o‘tkazishdan maqsadini quyidagicha izohlaydi: “Ibn Tufaylning eng muhim falsafiy masalalarga qarashlarini oydinlashtirish uchun uning fikrini bilish, bashoratlar masalasiga e’tibor qaratish edi”³ deb izohlaydi. Tadqiqotchi analitik usuldan foydalangan. Ba’zi faylasuflar oldida quyidagi savol paydo bo‘lgan, ya’ni Nima uchun Ibn Tufayl “Hayy ibn Yaqzon”ni yozishda hikoya adabiy janrini tanlagan. Tadqiqotlar natijasida olimlar bu savolga javob topishadi. “Uning hikoya shaklini, ayniqsa,

¹<https://alrashad.org>

² Two Andalusian Philosophy// trans. by Jim Colville. – New York, 2011. – P. 70.

³ Ибн-Туфайль. Повесть о Хайе ибн Йакзане // Мусульманская философия (Фальсафа): антология (Перевод с арабского, предисловие и комментарии Т. Ибрагима и Н.В. Ефремовой). – Казань: ДУМ РТ, 2009. – С. 234.

adabiy janr sifatida tanlashiga kelsak, bu uning o‘quvchi ruhiga ta’sir o‘tkazishi va falsafani ommaga bilvosita taqdim etish, uni izlashga undash, falsafani o‘ziga xos xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatishdir. So‘fiy tajribasi real tajriba bo‘lgani va hikoya buni ifodalashning eng yaxshi yo‘li ekanligi ham aytilgan. Ibn Tufayl “qalblar va ularning tabiatidan xabardor bo‘lgan “faylasufdir”¹.

Gnoseologiya islom falsafasidagi murakkab jarayon bo‘lib, Hayy ibn Yaqzonne to‘g‘ri tushunish uchun muhim bo‘lgan murakkab kosmografiyani o‘z ichiga oladi. Islom faylasuflarining epistemologik qarashlari neoplatonchilar tomonidan ishlab chiqilgan noaniq va ko‘p muhokama qilingan Arastu nazariyasidan kelib chiqadi, u insonning potentsial aql-zakovati abadiy faol aql tomonidan amalga oshirilishini ta’kidlaydi. Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, Ibn Tufayl qarashlariga ko‘proq Arastu va uning ta’limoti sezilarli darajada ta’sir qilgan. Ibn Tufayl ilm ikki yo‘l: aql yo‘li va qanoat yo‘li bilan olinadi, deb hisoblaydi². Ya’ni nazariy bilim va intuitiv bilim. “Hayy ibn Yaqzon” asari asosan intuitiv bilim orqali yoritishga asoslangan.

Ushbu turdag'i bilim obyektlarning xususiyatlarini ongga o‘tkazish uchun ishlaydigan sezgilarga asoslanadi, shuning uchun ong umumiyluk hukm chiqaradi yoki narsalarni tajribaga bo‘ysundiradi. “Hayy atrofidagi jonivor va jonsiz narsalarga qarab ularni ko‘zdan kechirar, ularning qilmishlariga ko‘p marta taqlid qiladi. Uni boqib katta qilgan jayron o‘lganda u halokatning sababini bilishga intiladi, natijada unda bilish rivojlanana boshlaydi. Hayy tanani mashinaga o‘xshash ekanligini angloydi”³. Shunday qilib asarda Ibn Tufayl insoniyat bilimi rivojlanishini, ya’ni asta-sekinlik bilan rivojlanishini ko‘rsatib bergen. Hayy sezgi va tajribadan boshlab, tahvil va mantiqiy xulosaga o‘tgan va nihoyat, ruhmi kashf etish va hatto bu ma’noga bog‘lanishi orqali tabiat olamidan ya’ni tabiatdan nariga o‘tgan.

Hayy moddiy narsalarni kuzatganda u eng oddiy narsalarni oladi. Ya’ni moddiy modda “suv”, suv isitiladi va soviydi. Agar u quyosh yoki olovdan tashqari issiqlikka duchor bo‘lsa, suv isiydi. Hayy jismlarning xususiyatlarini bilar edi. “Osmon, sayyoralar barchasi haqida ma’lumotlarga ega edi. Sayyoralar jismlarni o‘z ichiga oladi, ularning diametrлari cho‘ziladi. Ular: uzunlik, kenglik va chuqurlik. Ibn Tufayl asarida “atribut-bu tanadir” deb aytadi. Tana muqarrar ravishda cheksizdir. Bu o‘rinda “atribut” tushunchasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, atribut (lot.attributum-baxsh etaman) obyektning zarur, muhim, xos xususiyati, muayyan jismning aynan shu jism ekanligini belgilovchi xususiyatlari (mas,falsafada materiya). Ibn Tufayl qarashlarida ko‘proq ratsional bilimga

¹ Two Andalusian Philosophy// trans. by Jim Colville. – New York, 2011. – P. 71.

² Falsafa qomusiy lug‘at. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyat, 2004. – B. 278.

³ /Ibn Tufayl. حَيٌّ بْنُ يَقْظَانَ رِسَالَةً. – مصر.



tayangan. Ya’ni inson ma’rifatga erishish uchun ilmiy bilim va metafizikani o’zlashtirishi kerakligini ta’kidlaydi.

Bulardan ilmiy bilim oddiy bilishdan farq qilib, u borliqdagi predmet va hodisalarning qonuniyatlarini, uning mohiyatini dalil, isbot orqali bilishdir. “Metafizika-(yunoncha, meta physika – fizikadan so‘ng) –borliqning sezgilardan yuqori turuvchi prinsiplari va umumiy asoslari to‘g‘risidagi fan”¹.

So‘ngra uning ko‘zlarida jism butun ma’nosini yo‘qotdi va u uni chetga surib, o‘z fikrini ikkinchi narsaga, ya’ni “an-nafs”ga qaratdi”². U o‘z tадqiqotini jismlarni shunday emas, balki ma’lum bir shaklga ega bo‘lgan, ularning o‘zar farqini aniqlaydigan xususiyatlari kelib chiqadigan obyektlar sifatida ko‘rib chiqishdan boshladi. “Ularni kuzatib, aqliy ravishda sinflarga bo‘lib, ular uchun umumiy shaklga ega bo‘lgan jismlar to‘plamini ajratib ko‘rsatdi. Ulardan bir yoki bir qator harakatlar kelib chiqadi, so‘ngra ushbu to‘plamda shu shaklda u bilan bog‘liq bo‘lgan guruhni aniqladi. Lekin bundan tashqari, boshqa bir shaklga ega bo‘lib, undan ba’zi boshqa harakatlar kelib chiqadi va bu guruhda birinchi va ikkinchi shakllarga qo‘srimcha ravishda ma’lum uchdan bir qismiga ega bo‘lgan, undan o‘ziga xos harakatlar paydo bo‘ladigan kategoriylar mavjud. Masalan, tuproq, toshlar, minerallar, o‘simgiliklar, hayvonlar va boshqalar kabi barcha yer yuzidagi jismlar umumiy shaklga ega bo‘lgan yagona agregatni hosil qiladi. Bunday jismlar majburan yuqoriga ko‘tarilganda, qo‘yib yuborilishi bilanoq, shakliga ko‘ra, darhol pastga qarab shoshiladilar. Bu borliqni anglash istagi shu qadar kuchli ediki, bundan buyon Hayyning fikrlari faqat u bilan band edi”³.

Hayyga ayon bo‘ldiki, vujudga kelish va halokat olamida bo‘lgan nafs bilan idrok qilinadigan jismlar uchun mohiyat (haqiqat) ba’zilar uchun ko‘proq tushunchalardan (ma’oniy) to‘ldiruvchi, ba’zilari uchun esa ma’nodan hosil bo‘ladi. “Kichikroq son va u kattaroq sondan kichikroq sonni bilish osonroq ekanini bilgani uchun, birinchi navbatda, uning shaklini o‘rganishga qaror qildi, uning mohiyati kichikroq tushunchalardan iboratligi ham aytilgan”⁴.

Hayy hayvonlar va o‘simgiliklarga xos bo‘lgan turli harakatlarni amalgalashirishi uchun ularning mohiyati ko‘p sonli tushunchalardan iborat bo‘lishi kerakligini ko‘rgan va shuning uchun ham har ikkisining shakllari haqida o‘ylashni to‘xtatib turishga qaror qilgan. Yerning ba’zi qismlari boshqalarga qaraganda soddarroq tarkibga ega ekanligini payqab, u iloji boricha ularning tarkibi soddarroq bo‘lganlarini o‘rganishga harakat qildi. Suv, uning kuzatishlariga

¹ Falsafa qomusiy lug‘at. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2004. – B. 347.

² ابن طفيل. حي بن يقطن رسالة. – مصر. / Ibn Tufayl. Hayy ibn Yaqzon. – Misr, 2016. – C. 12.

³ Ибн-Туфайль. Повесть о Хайе ибн Йакзане // Мусульманская философия (Фальсафа): антология (Перевод с арабского, предисловие и комментарии Т. Ибрагима и Н.В. Ефремовой). – Казань: ДУМ РТ, 2009. – С. 241.

⁴ О‘sha asar. – С. 243.



ko‘ra, oddiy tarkibga ega, chunki uning shaklidan kamroq miqdordagi harakatlar paydo bo‘ladi. Olov va havo ham uning fikricha, oddiy tarkibga ega. Ilgari Hayy bu to‘rt jismning bir-biriga o‘zgarishi, ularda umumiy narsa borligi, ya’ni “mavjudlik” tushunchasini anglab yetadi.

Shunday qilib, u yuqoriga yoki pastga harakatlana olmaydi, issiq yoki sovuq, ho‘l yoki quruq bo‘la olmaydi, chunki bu xususiyatlarning hech biri barcha jismlarga tegishli emas va shuning uchun u tanaga tegishli emas. Demak, agar jismdan tashqari boshqa shaklga ega bo‘lmagan jism bo‘lishi mumkin bo‘lsa, unda bu belgilarning birortasi bo‘lmaydi va agar u boshqa belgiga ega bo‘lsa, u bir shaklga ega bo‘lgan barcha jismlar uchun umumiy bo‘lar edi. Hayy esa tirik va jonsiz barcha jismlar uchun umumiy bo‘ladigan hech bo‘limganda bitta shunday belgi (vasf) borligini ko‘ra boshladi. Ammo u ular uchun “kengaytma” (imtidad) tushunchasidan boshqa umumiy bo‘lgan hech narsani aniqlamadi, ularning barchasi “uzunlik”, “kenglik” va “chuqurlik” deb nomlangan uch o‘lchovga ega. Bu tushunchani, u tushundi, tanaga tegishli. Biroq, “o‘z histuyg‘ulari bilan u faqat shu xususiyatga ega bo‘lgan qandaydir tana bo‘lishi mumkinligiga hech qachon ishonmasligi kerak edi, shuning uchun u yuqorida aytib o‘tilgan kengaytmadan tashqari hech narsaga ega bo‘lmaydi va umuman boshqa barcha shakllardan mahrum bo‘ladi”¹.

Ibn Tufayl o‘z kitobining mavzusi bo‘lgan falsafa uchun ishlatgan atamani arab tilida “al-hikmat al-mashriqiya” (“sharq hikmatlari”) yoki al-hikmat al-mushriqiya (“yorug‘lik beruvchi hikmat”) deb o‘qish mumkin. “Bu ba’zi yevropalik olimlar orasida chalkashliklarni keltirib chiqardi va ikkita alohida falsafa mavjud degan taxminga olib kelgan”². Bu mavzu yuzasidan olimlar o‘rtasida bir qancha bahs-munozaralar kelib chiqqan. Ibn Tufayl va ba’zi olimlar aql va materiya borasida turlicha fikrlarni bildirganlar. Ibn Tufayl fikricha, butun tabiatda har bir narsa uchun materiya mavjud bo‘lganligi sababli (ularning barchasi potensialdir), boshqa tomondan, ularning sababi bo‘lgan va ishlab chiqaruvchi boshqa narsa ham mavjud. Ularni ishlab chiqarish, bularning barchasi san‘at sifatida uning materiali bilan bog‘liq, shuning uchun “ruh”da bu farqlar bo‘lishi kerak deb ta’kidlaydi. “Tabiatdagi barcha narsa o‘zgaradi, ba’zilari esa turli xil shakllarga kirishi orqali tabiatda o‘zini saqlab qoladi”³. Namuna sifatida “yorug‘lik”ni keltiradi. “Yorug‘lik” ham potensial ranglarni haqiqiy ranglarga

¹ Ибн-Туфайль. Повесть о Хайе ибн Йакзане // Мусульманская философия (Фальсафа): антология (Перевод с арабского, предисловие и комментарии Т. Ибрагима и Н.В. Ефремовой). Казань: ДУМ РТ, 2009. – С. 487.

² Two Andalusian Philosophy// trans. by Jim Colville. – New York, 2011. – P. 78.

³ Ибн-Туфайль. Повесть о Хайе ибн Йакзане // Мусульманская философия (Фальсафа): антология (Перевод с арабского, предисловие и комментарии Т. Ибрагима и Н.В. Ефремовой). Казань: ДУМ РТ, 2009. – С. 669.

aylantiradi. Mana shu holatni o‘ziga xos, deb mohiyatan “faol jarayon” sifatida ko‘rsatadi.

Ibn Tufayl qarashlarida “faol aql” tarafdori bo‘lgan. Ibn Tufayl tasavvufini nazariy deb tanqid qilgan Ibn Bajjaning fikricha, inson kamolotiga moddiy olamning dastlabki hissiy taassurotlaridan to moddiy bilimdan oshib, faol aqlga erishilgunga qadar aqliy idrok etilgan shakllar iyerarxiyasi orqali mavhumlanish jarayoni orqali erishiladi. Bu aqliy rivojlanishning yakuniy bosqichidir. Biroq Abu Ali ibn Sino faol aql bilan birlashishga faqat o‘limdan keyin erishish mumkin, deb hisoblaydi. Xuddi shu nomdagagi qisqa risolasida u “faol aqlning” o‘ziga Hayy ibn Yaqzon nomini qo‘llagan edi. Ibn Tufayl bu ismni shaxsga taalluqli qilib, faol aql insondan tashqari narsa emasligini va “insoniy kamolot” ekanligini nazarda tutadi. Ya’ni bu hayotda erishish mumkin bo‘lgan narsadir. Ibn Tufayl soddalashtirilgan narsalar orqali emonatsiya nazariyasi haqida ma’lumot beradi. “Emonatsiya nazariyasi – (lot. *Emanatio* – ajralib chiqish, tarqalish) – diniy-falsafiy termin. Bunga ko‘ra, moddiy olam ilohiy ibtido (Xudo)dan astasekin, bosqichma-bosqich ajralib chiqadi”. Ibn Tufaylning fikricha, “bu “faol aql”ga taalluqli emas, lekin aynan o‘sha yerda Hayy “hech bir ko‘z ko‘rmagan, hech bir qulq eshitmagan va inson qalbi his qilmagan narsaga” guvoh bo‘ladi”¹.

Hayy turli toifadagi mavjudotlarni - hayvonlar, o‘simliklar va minerallarni diqqat bilan kuzatar ekan, u nafaqat har bir toifadagi mavjudotlarning, balki barcha toifadagi mavjudotlarning birligini kashf etdi va “hamma mavjudot ... uning oldida birlashgan narsa sifatida paydo bo‘ldi”².

Hayy jismoniy voqeliklarni bilishdan rujni va u bilan birga aqlni anglaydigan metafizik mavjudotlarni bilishga harakat qiladi. Hodisalar o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlari uni Birinchi sabab, Yaratuvchi (Xudo) mavjudligi haqidagi g‘oyaga olib keldi. O‘z navbatida, dunyoda hukmronlik qilgan tartib va uyg‘unlik Yaratganning donoligidan, hamma narsani bilishidan dalolat beradi. Hayy, shuningdek, maxluqotning barcha ulug‘ligi va kamoloti Yaratguvchidan ekanligini va Unga “juda katta imkoniyatlar” xos ekanligini ham tushundi.

Hayy o‘z shaxsiyati haqida fikr yuritib, shunday xulosaga keldi: Xudo o‘lmas bo‘lishi kerak. Ruhning eng katta baxti borliqning mutlaq birligini, Xudo bilan “birlashish” (ittusal) va Unda “yo‘qolib ketish” (fana) – “o‘z tabiatiga ko‘ra ifodalab bo‘lmaydigan” holatni his qilishdan iborat. Hayy o‘zini so‘fiyga aylanib qolgandek, shunday hayajonli holatga keltirishni o‘rgandi.

Ibn Tufayl qissaning davomida umrining qolgan qismini yolg‘izlikda va ibodatda o‘tkazish uchun bu yerga ko‘chib o‘tgan qo‘shni orolda yashovchi

¹ ابن طفيل. حي بن يقطان رسالة. – مصر

² Ибн-Туфайль. Повесть о Хайе ибн Йакзане // Мусульманская философия (Фалсафа): антология // Пер., предисловие и комментарии Т. Ибрагима и Н.В. Ефремовой. – Казан: ДУМ РТ, 2009. – С. 483.

Absolning uchratishi haqida hikoya qiladi. Absol orolida odamlar Xudoning payg‘ambarlaridan biriga tegishli dinga e’tiqod qilishgan. Bu din “odatda keng ommaga qaratilgan nutqda bo‘lgani kabi” an’naviy tasvirlarda (amsal) taqdim etiladi. “Absolning o‘zi bu obrazlarning ichki, ma’naviy mazmuniga kirib borishga moyil bo‘lib, ularni allegorik (dalilga asoslanib) talqin qilishga (ta‘vil) intilardi”¹.

Hayyga o‘z tilini o‘rgatib, u bilan suhbat chog‘ida Absol vatanida keng tarqalgan din aqidalari – Xudo, farishtalar, Muqaddas Kitob, payg‘ambarlar, qiyomat, hukm, jannat va do‘zax haqidagi aqidalar ularning to‘g‘ri talqini shunday ekanligini aniqladi. Ular Hayy aqlning tabiiy nuri orqali kelgan o‘sha dunyoqarashga to‘g‘ri keladi. Absol esa Hayyga xizmat qilishni va unga o‘z e’tiqodi bilan tanish bo‘lgan bir-biriga zid bo‘lib tuyulgan dinlarning amaliy ko‘rsatmalari borasida uning maslahatlariga amal qilishni o‘z zimmasiga oldi.

O‘z navbatida, Hayy Absol va uning qavmi bilan tanishib, din aqidalarining o‘z tafakkuriga mosligini tushundi. Yuqorida zikr etilgan dinga asos solgan payg‘ambarning Alloh tomonidan berilgan vazifaga ishonchi komil bo‘lib, bu payg‘ambar tomonidan belgilab qo‘yilgan amaliy vazifalarni – namoz, zakot, ro‘za, haj kabilarni ham qabul qildi.

XULOSA. Shunday qilib, Hayy bu odamlarning “ko‘plari aqlsiz” ekanligini tushundi va shunday xulosaga keldi: ular uchun najotning boshqa yo‘li yo‘q, faqat buyruqni bajaradilar, o‘z hollaricha haqiqatga erishish yo‘lini izlamaydilar”². Hayy tabiatan rivojlangan insoniyatni va aqlning tabiiy nurini, turli vositalarsiz o‘z-o‘zidan mavjudlikni mos anglagan holda idrok qiladi. Ibn Tufayl bu qissada e’tiqod bilan aqlning birligini va har doim bir-birini taqozo etishini tahlil qilishga uringanligini ko‘rishimiz mumkin.

Demak, Ibn Tufayl “Hayy ibn Yaqzon” asarida o‘zining gnoseologik, ontologik, axloqiy masalalar yuzasidagi firkalarini mazkur asar orqali yoritib berilgan. Ibn Tufayl bilishda asosan Aristotel nazariyasiga asoslanganiga ko‘p o‘rinlarda guvoh bo‘lish mumkin. Ibn Tufayl ijodida “faol aql” degan tushunchaga ham duch kelinadi. Ibn Tufayl fikricha, “faol aql” – bu “insoniy kamolot”dir. Ya’ni insonning komillikka erishgan davri, har tomonlama mukammal bo‘lgan bosqichdir.

Ba’zi o‘rinlarda Ibn Tufayl jamiyatdagi odamlarning moddiy olamga, hissiy lazzatlanishga intilishlarini tanqid qiladi. Ibn Tufayl faol aqlni insonni kamolotga yetaklovchi asosiy narsa sifatida qaraydi. Olimning fikriga ko‘ra, insonlar moddiy

¹ Ikramova I.R. Ibn Rushd: din va falsafa uyg‘unligi. – Toshkent: Metodist nashriyoti, 2023. – B. 46.

² Ибн-Туфайль. Повесть о Хайе ибн Йакзане // Мусульманская философия (Фалсафа): антология // Пер., предисловие и комментарии Т. Ибрагима и Н.В. Ефремовой. – Казан: ДУМ РТ, 2009. – С. 542.

olamga emas, balki o‘zlarini diniy ilmlarini chuqurroq o‘rganishga moslashtirishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ikramova I.R. Ibn Rushd: din va falsafa uyg‘unligi. – Toshkent: Metodist nashriyoti, 2023.
2. Falsafa qomusiy lug‘at. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2004.
3. Two Andalusian Philosophy// trans. by Jim Colville. – New York, 2011.
4. حي بن يقطان رسالة / ابن طفيل. Ibn Tufayl. Hayy ibn Yaqzon. – Misr, 2016.
5. (Sayyid ibn Sayyid. Fiqh va siyosat). سید ابن سید. الفقح و السياسة . ١٩٨٥. Beirut. ص. ٧
6. Ибн Туфейль. Роман о Хайе, сыне Якзана / пер. И.П. Кузьмина // Избранные произведения мыслителей стран Ближнего и Среднего Востока. – М.: Соцэкиз ИФ АН СССР, 1961. – С. 634.
7. Ибн-Туфайль. Повесть о Хайе ибн Йакзане // Мусульманская философия (Фальсафа): антология (Перевод с арабского, предисловие и комментарии Т. Ибрагима и Н.В. Ефремовой). – Казань: ДУМ РТ, 2009.